

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER
MIRZO ULUGBEK



RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR VA
SUNTY INTELEKTNI RIVOJLANTIRISH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI



INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

PROCEEDINGS
of materials on topic:

«CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF
COMPUTATIONAL LINGUISTICS - CTCL.2025»



Crossref
we use DOIs



Google

OPEN



ACCESS



TASHKENT - 2025

**“KOMPYUTER LINGVISTIKASINING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI – CTCL.2025”
NOMLI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASINING ILMIY
MAQOLALARI VA TEZISLAR TO‘PLAMI. T.: O‘zMU, 2025.
2025-yil 25-aprel**

TASHKILIY QO‘MITA TARKIBI:

<i>N.Z.Abduraxmonova.</i>	O‘zMU Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası mudiri, f.f.d., professor.
<i>G.B.Madiyeva.</i>	Al-Farobiy nomidagi Qozoq Milliy universiteti professori, f.f.d.
<i>Z. T.Taxirov.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası professori, f.f.n.
<i>A.R.Iskandarova.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası dotsenti, PhD.
<i>D.A.Fattaxova.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası katta o‘qituvchisi, PhD.
<i>U.R.Xalmuxamedova.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası katta o‘qituvchisi.
<i>N.Sh.Inogamova.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası katta o‘qituvchisi.
<i>F.R.Topildiyeva.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası katta o‘qituvchisi.
<i>D.K.Xudoyberganova.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası katta o‘qituvchisi, PhD.
<i>Z.M.Kasimova.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası katta o‘qituvchisi, PhD.
<i>J.N.O‘rozov.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası katta o‘qituvchisi, PhD.
<i>G.G‘.Xoliyorova.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi.
<i>F.M.Aliyev.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi.
<i>M.S.Jo‘raqulova.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi.
<i>Z.G.Qodirova.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi.
<i>M.F.Abdunazarova.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi.
<i>D.Xolbekova.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi.
<i>D.A.Mirvaliyeva.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi.
<i>N.K.Tursunova.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi.
<i>U.M.Askarova.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi.
<i>S.A.Abduraxmonova.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi.
<i>R.T.O‘rinboyeva.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası magistranti.
<i>L.A.Boboxo‘jayeva.</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası magistranti.
<i>M.Sh.Xudoyberganova</i>	Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrası magistranti.



N.K. TURSUNOVA. DUNYO TILSHUNOSLIGIDA SOTSIOLEKTLARNING TASNIFLANISHI VA O'RGANILISHI	483
F. TOPILDIYEVA, Z.D. RASULBERDIYEVA. BADIY MATNLARDA ARGO VA JARGONLARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI	487
F. MUKHAMMADALIEVA. TERMINOLOGIK TEZAVURUS YARATISHDAGI NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR BIOLOGIYA SOHASI MISOLIDA	490
Z. KARIMOVA. RAVISH SO'Z TURKUMINI MA'NOVIY TUZILISHIGA KO'RA GRAMMATIK POS TEGGLASH (PARTS-OF-SPEECH TAGGING) MASALASI	494
SH.R. ABDULLAYEVA. ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND ONTOLOGICAL DICTIONARIES: MODERN APPROACHES	496
N.I. ADIZOVA. KORPUSGA ASOSLANGAN TURIZMGA OID MATNLARNING O'RGANILISHI	499
U.A. G'OYIBOV. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARIDAGI ANTROPONIMIK KOMPONENTLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	505
M. JURAEV. HISTORICAL FOUNDATIONS AND EARLY FRAMEWORKS OF TEXT COMPLEXITY ASSESSMENT	510
M.N. JO'RAYEVA. O'ZBEK TILIDA KOD ALMASHINUVI	516
N. ABDURAXMONOVA, L. BOBOXO'JAYEVA. TURLI TIZIMLI TILLAR DOIRASIDA ONTOLOGIYANING NAZARIY ASOSLARI	520
N. ABDUJABBAROVA. PARALLEL KORPUSNING O'RNI VA AHAMIYATI	524
M. XUDYOYBERGANOVA. QORAQALPOQ VA O'ZBEK TILLARINING SINTAKTIK MODELLARINI TEGGLASH MASALASI	528
O.O. OBIDJONOVA. TEZAVURUS VA TEZAVURUS LUG'ATLARNI YARATISHGA DOIR	533
S.A. ABDURAXMONOVA. O'ZBEK BOLALAR NUTQINING KORPUSGA ASOSLANGAN PSIXOLINGVISTIK TADQIQI: CHILDES TIZIMI ASOSIDA YONDASHUV	538
M.S. JO'RAQULOVA, S.I. QO'ZIYEVA. O'ZBEK TILIDAGI SO'Z BIRIKMALARINI FORMALLASHTIRISH BOSQICHLARI	541
F. MENGZIYOTOVA. O'ZBEKISTONDA KOMPYUTER LEKSIKOGRAFIYASI YUZASIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	546
G.I. KUVONDIKOVA. THEORETICAL ISSUES OF CREATING AN EDUCATIONAL CORPUS OF STUDENT SPEECH	549
M. SOBIROVA A. MADADOVA. O'ZBEK TILI MORFOLOGIYASINING ONTOLOGIK MODEL	555
I. ASKAROV. DIAKRONIK KORPUSLAR SHAKLLANISH EVOLYUTSIYASI	558
U. ABDURAXMONOV. IKKI TILDAGI FRAZEOLOGIK BIRIKMALARNING PARALLEL KORPUSDA BERILISHI	562
D.T. GIYASOVA, A.R. ISKANDAROVA. O'ZBEK VA RUS MILLIY KORPUSINING ARHITEKTURASI	566
D.X. XOLBEKOVA. ULUG'BEK HAMDAM IJODIDA LINGVOSTATISTIK TAHLIL	570

KORPUSGA ASOSLANGAN TURIZMGA OID MATNLARNING O'RGANILISHI

Adizova Nilufar Istamovna

Buxoro davlat universiteti O'zbek tilshunosligi
 va jurnalistika kafedrasida dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

E-mail: nilufaradizova8@gmail.com

Annotatsiya: Turizm dunyo hamjamiyatida mamlakatlar iqtisodiyoti, milliy madaniyati, tarixi hamda ijtimoiy hayotining ajralmas qismi, insoniyat faoliyatining barcha yo'nalishlariga bevosita daxldor, eng tez rivojlanayotgan, daromadli sohalaridan biridir. Ushbu maqolada turizm sohasining barcha turlarida keng qo'llanadigan madaniy va milliy jihatdan o'ziga xos konseptlarni nomlovchi, tasvirlovchi ifoda birliklariga xos ayrim xususiyatlar hamda ularning turistik matnlar asosida tilshunoslik nuqtayi nazardan dunyo olimlari tomonidan o'rganilishiga doir fikrlar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: turistik matnlar, turistik birliklar, konsept, madaniy obyektlar, turizm, sayohat, umummilliy, hududiy, mintaqaviy birliklar.

Аннотация: Туризм является неотъемлемой частью экономики стран, национальной культуры, истории и социальной жизни в мировом сообществе, одной из наиболее быстро развивающихся и прибыльных сфер, непосредственно связанной со всеми направлениями человеческой деятельности. В данной статье освещены некоторые особенности выражений, обозначающих и описывающих культурные и национальные концепты, широко используемые во всех видах туристической деятельности, а также рассмотрены взгляды мировых учёных на изучение этих выражений в туристических текстах с лингвистической точки зрения.

Ключевые слова: туристические тексты, туристические единицы, концепт, культурные объекты, туризм, путешествие, общенациональные, территориальные, региональные единицы.

Annotation: Tourism is an integral part of a country's economy, national culture, history, and social life within the global community. It is one of the fastest-growing and most profitable sectors, directly connected to all areas of human activity. This article highlights certain features of expressions that denote and describe cultural and national concepts widely used across various types of tourism activities. It also examines the perspectives of international scholars on the study of these expressions in tourism-related texts from a linguistic point of view.

Keywords: tourism texts, tourism units, concept, cultural objects, tourism, travel, nationwide, territorial, regional units.

Jahon tilshunosligida turizmga oid matnlar va ularning lingvistik, leksik-semantik, diskursiv tadqiqiga doir korpusga asoslangan ilmiy izlanishlarga XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab e'tibor kuchaydi. Sun'iy intellekt va turli tizimdagi axborot texnologiya vositalarining hayotimizdan keng o'rin ola boshlashi bugun bu kabi ishlarning yanada muhim ahamiyat kasb eta boshlaganini ko'rsatdi.

Dunyo tilshunosligida turizmga doir matnlar ekstralingvistik va lingvistik omillarning o'zaro ta'sirini aniqlash asosida o'rganilgan bo'lib, ularning asosiy qismi lingvokulturologik, antropotsentrik, pragmatik va kognitiv-diskursiv yo'nalishlarda amalga oshirilgan. Lingvistik jihatdan ularning leksik xususiyatlari esa, asosan, *terminologik, leksikografik va diskursiv* tomondan tahlil qilingan [Tayavi Yasen, 2017; 10]. Biroq o'zbek tilida turizm sohasiga oid leksik sath hamda matnlar tilshunoslik nuqtayi nazardan to'la asoslanib, korpus asosida tizimlashtirilmagan. Bu, ayniqsa, turizm sohasining barcha turlarida keng qo'llanadigan madaniy va milliy jihatdan o'ziga xos konseptlarni nomlovchi, tasvirlovchi ifoda birliklariga xos. Bu kabi



elementlar turizm sohasiga bevosita va bilvosita aloqador bo'lib, muayyan millatga xos milliy-madaniy tushunchalarni ifodalaydi hamda tilning leksik tarkibini boyitish va kengaytirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

L.M.Goncharova fikricha, "turizm" tushunchasi muayyan til sohiblari ongida mavjud bo'lgan "sayohat" lingvomadaniy konsepti bilan uzviy bog'liq holda predmetlarga emas, balki muayyan voqealarga oid murakkab mental xususiyatli konseptdir. Kontsept – bu har qanday madaniyat uchun muhim va qadrlil bo'lgan, u yoki bu obyekt haqidagi bilimlarni o'z ichiga olgan va tilda uni nomlovchi va tasvirlovchi leksik birliklar to'plamiga asoslangan milliy xususiyatga ega bo'lgan mental ta'limotdir[Goncharova L.M.,2012;58]. U muayyan bir millatning madaniy xotirasiga asoslangan bo'lib, keng semantik maydonga ega bo'lgan ijod mahsullari(fenomeni) dir.

Bugungi kunda tarixiy va ijtimoiy shart-sharoitlar tufayli turizm sohasida ikki qarama-qarshi – turizm faoliyatining xalqaro hamda milliylashuv tendensiyasi amal qiladi. Ushbu tendensiyalar asosida turizm sohasining o'ziga xos leksik sathi ham shakllanadi. Jumladan, sayohat uchun mo'ljallangan yo'riqnomalar, kataloglar, reklama matnlari, broshyura va qo'llanmalarda dominantlik vazifasini bajaruvchi milliy-madaniy birliklar, asosan, milliylashuv tendensiyasi asosida shakllangan bo'lib, ular umummilliy, mintaqaviy, mahalliy hamda kasbiy[Tayavi Yasen, 2017; 10] xarakterga ega bo'ladi hamda axborot berish, ta'sir qilish, targ'ib qilish va kognitiv xususiyatlarni ifoda etadi.

Kasbiy ifoda birliklari, asosan, maxsus terminologiya sathi bilan bog'liq bo'lib, turizmga oid dunyoviy hamda sohaviy tushunchalar – terminlarni nomlash uchun qo'llanadi. Masalan, tur, turpaket, marshrut, ekskursiya, bron, recepsn(reception); sayohat agentligi, xona xizmati, safar obyekti kabilar.

Umummilliy konseptlar muayyan millatga xos madaniy jihatlarni aks ettirib, universal xarakter kasb etadi: "masjid", "qal'a", "imom", "madrasa" kabi. Jumladan, pretsedent nomlar ham muayyan millat mentaliteti bilan bog'liq milliy-madaniy jihatlarni aks ettirish bilan bir qatorda universal ahamiyatga ham egadir. Masalan, Amir Temur, Bahouddin Naqshbandiy, Imom al-Buxoriy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Jaloliddin Manguberdi va boshqalar. Chunki bu kabi birliklar allaqachon dunyoning aksariyat millat vakillari ongida muayyan assotsiatsiyalarni uyg'otib ulguragan. Mintaqaviy birliklar ayrim hududda joylashgan madaniy merosni o'ziga xos tarzda nomlaydi, mahalliy ifoda birliklari esa muayyan bir joyning nomi bilan bog'liq voqelik asosida kodlanadi. Masalan, "Ko'kaldosh" nomi bilan ataluvchi masjid Buxoroda ham, Toshkentda ham bor yoki "yozgi saroy", "xon", "toq" kabi ifoda birliklar ham muayyan hududlarda o'ziga xos xususiyati bilan aks etadi. Mahalliy elementlar – "amir", "Ark", "Toqi sarrofon", "Toqi zargaron", "Chashmayi Ayyub", "Somoniyar maqbarasi" kabilar faqat shu joy bilan bog'liq voqelikni yodga soladi.

Hozirda bu kabi milliy-madaniy jihatlarga, tarixiy-madaniy meros, osori atiqalarning nomlanishi, ularning mazmun-mohiyatini yoritib berish masalalariga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Shu sabab mamlakatimizda milliy istiqloldan keyin "bugungi globallashuv davrda har bir mustaqil davlat qatori o'z milliy manfaatini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratish"[O'zb. Res. PF-5850-сонли] muhim masalalardan biriga aylandi.

XX asrga kelib turizm jamiyatning juda tez rivojlanib borayotgan, integrallashgan, keng qamrovli sohalaridan biriga aylandi. Shu bois ushbu sohaga oid tarix(A.N.Dulov, K.A.Dyuxova, D.V.Yurchak), iqtisodiyot(R.Y.Stitsyuk; Tursunova G.R., Ochilova D.I.), madaniyatshunoslik(Moshnyaga Y.V., Dzyuba D.N., Vostrova Y.I., Vorobyova O.Y.), tarjimashunoslik(Marza N.E., Bepalova S.V., Kuznetsova L.N., Vasilyev S.K.), fizika-matematika(Qarshiyev A.B., Tursunov M.S.) kabi qator fanlar doirasida ko'plab, rang-barang tadqiqot ishlari yaratildi. Ayniqsa, turizm sohasiga doir matnlar lingvistik ishlarning muhim obyekti sifatida qator ilmiy ishlarning dunyoga kelishiga turtki bo'ldi.



Jahon tilshunosligida turizmga oid matnlarning til xususiyatlari monografik asosda T.I.Babkina, Y.A.Miroshnikova, O.P.Karenina, O.A.Kuzina, M.A.Kuzina, G.S.Atakyan, N.V.Filatova, E.Y.Novikova, M.G.Denisenko, A.S.Axmetshina, N.F.Starigina, V.A.Kolchevskaya, A.K.M.Alkudax, L.V.Vinogradova, M.Y.Plyushkina, D.Y.Gruzdev, T.Y.Zagryazkina, E.N.Bakurova, I.V.Odinsova, Qin Li, Shaobo Li, Sen Zhang Jie Hu, Zianjun Hu, O.V.Strijkova, I.V.Pak, S.N.Bezus kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning muhim qismi, asosan, matnlar tarjimasi bilan bog'liq lingvokulturologik, pragmatik, terminologik, reklama hamda diskursiv xususiyatlarini yoritish asosida amalga oshirilgan.

O'zbek tilshunosligida M.M. Buzrukova, S.S. Qodirov, N.T.Xodjayeva, N.K. Raimjanova, E.K. Elmurodova, Z.X. Umarova kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Korpus yondashuv asosida ham turizmga oid matnlarning diskursiv, pragmatik, qiyosiy tahlillariga ko'ra quyidagi natijalarga erishilgan: leksik to'plamlar, frazeologik birliklar aniqlanib, tahlil qilingan (Valensiya universiteti, Ispaniya), sayyohlarning Wuyuan qishloq turizmiga bo'lgan qiziqishlari, hududning tabiiy go'zalligi, an'anaviy arxitekturasini, tarixiy joylari va madaniy tajribalari bilan bog'liq afzalliklari web-matn materiallari asosida aniqlangan (Jinan Universiteti, Xitoy), Verona shahriga oid ingliz tilidagi ixtisoslashgan turistik reklama matnlaridan iborat korpusda modal fe'llarning kommunikativ funksiyalarining miqyosi va nozikliklari o'rganilgan (Italiya), vizual kontentni tez va keng auditoriyaga yetkazish uchun juda samarali platforma sifatida Instagramda sayyohlarni turli madaniyat, san'at, meros va urf-odatlar (madaniy turizm) bilan tanishtirishni targ'ib qilish va turli nutqlarda bitta WHS (Jahon merosi obyekti) haqida taqdim etilgan isbotlovchi turdagi ma'lumotlar (evidential information) va bilim asosidagi isbotlovchi ma'lumotlarning qanday aks etishi madaniyatlararo nuqtayi nazardan tahlil qilingan (Calabria Universiteti, Italiya)...

XX asrning 60-yillarida Germaniyada struktur-semantik yo'nalishning paydo bo'lishi bilan matnshunoslik alohida mustaqil fan sifatida shakllandi va rivojlandi. I. R. Galperin tilning matnga ta'sirini rad etmagan holda uni takrorlanmaydigan, "nutq ijodiy jarayonining ongli ravishda tashkil etilgan natijasi" sifatida til tizimiga emas, nutq tizimiga kiritdi. Matnga qiziqish tilshunoslikning nazariy rivojlanishi va matnni lingvistik birliklar tizimiga kiritishning tabiiy jarayoni, shuningdek, matnni tashkil etishning umumiy prinsiplari va ularni samarali qurish qoidalarini aniqlashdagi amaliy ehtiyojlardan kelib chiqqan bo'lib, fan va texnikaning tez rivojlanishi, xususan, kommunikatsiya nazariyasi, mashina tarjimasi, tillarni o'rgatish metodikasining takomillashuvi matnni turli fanlar nuqtayi nazaridan o'rganish va tahlil qilishga olib keldi: mantiq, sotsiologiya, psixologiya, ritorika, etnografiya, falsafa, san'atshunoslik va, albatta, lingvistika [Galperin I.P., 1981; 138].

Jumladan, lingvistik yondashuvlar asosida dunyo olimlari tomonidan olib borilgan ayrim ilmiy izlanishlarni kuzatadigan bo'lsak, ular, asosan, turizmga oid matnlarning quyidagi jihatlari yoritib berishga ba'ishlanganini ko'rish mumkin. Masalan, D.Y.Gruzdev tadqiqot ishi turli tillarda milliy korpuslarni tuzish tajribasiga asoslangan bo'lib, ixtisoslashgan elektron matnlar korpuslari tuzish, ularni yozma tarjimon ishida qo'llash prinsiplari va usullarini aniqlash, shaxsiy tarzda tuzilgan tematik matnlar korpuslariga qo'yiladigan minimal talablarni belgilash, tarjimonlarning matnlar korpuslari va ularning munosabatlari hamda imkoniyatlari haqida xabardorligini oshirish omillarini o'rganishga bag'ishlangan [Gruzdev D.Y., 2013].

Y.M. Tayavining tadqiqot ishi fransuzcha sayohat qo'llanma va yo'riqnomalaridagi lingvokulturologik realiyalarni kompleks tarzda o'rganishga bag'ishlangan [Tayavi Yasen, 2017] bo'lib, muallif ularni turlarga ajratgan holda leksikografik, diskursiv xususiyatlari, eksplitsit va implitsit strategiyalari hamda professional va maxsus turistik terminlarning o'zaro farqli jihatlari yoritishga diqqat qaratgan.

V.A.Kolchevskaya tahlillari asosida zamonaviy turistik internet-diskursning struktur-semantik, janr xususiyatlari tur operatorlar veb-sahifalari, turistik jurnallar, turistik ijtimoiy tarmoqlarning matnlari asosida o'rganilgan, tizimlashtirilgan va institutsional diskurslar tizimida persuzivlik (ishontirish) nutq ta'siri kategoriyasi sifatida uning lingvistik va nolingvistik vositalari



klassifikatsiyasi, pragmalingvistik, janr xususiyatlari, kommunikativ strategiya va taktikalari taqdim etilgan[Kolchevskaya V.A., 2020].

*N. Filatov*ning ishida turizm diskursining lingvistik xususiyatlarini aniqlash va tizimlashtirish, turizm sohasida bilimlarni kodlash va translyatsiya qilish usullari, kommunikativ strategiyalar va taktikalar, ularning til vositalarida ifodalanishi, turizm diskursining o'ziga xos lingvistik hamda tipologik xususiyatlarini tasvirlab berish, uni boshqa diskurslar orasidagi o'zini aniqlash, uning perlokutiv salohiyati va manzilli auditoriyaga nutqiy ta'siri optimallashtirishga yordam beruvchi til vositalarining xususiyatlarini o'rganish masalalari yoritib berilgan[Filatova N.V.,2014].

S.X.Lipiridi tomonidan 1200 dan ortiq onlayn lug'atlardagi maqola fragmentlari asosida turistik muloqot jarayonida qo'llangan 300 ta neologizm (rasmiiy turistik leksika) tanlab olingan va onlayn-lug'at materiallari asosida turizm diskursining tarmoq inglizcha neologizmlari semantik-aksiologik va kognitiv-pragmatik jihatlari o'rganilgan; turizm leksikasining internetda yaratilishi, qayd etilishi va tarqatilishi jarayonida kognitiv jarayonlarning namoyon bo'lish xususiyatlari ko'rib chiqilgan hamda tarmoq madaniyatining sayyohlik kommunikatsiyasi ishtirokchilari til xotirasiga ta'siri, madaniy va sotsiolingvistik jihatlari tahlil qilingan[Lipiridi S.X., 2021].

*L.V.Vinogradov*ning ilmiy ishi [Vinogradova L.V.,2011] ingliz va rus tillaridagi turizm terminologiya tizimlarini sinxron va diaxron nuqtayi nazardan qiyoslab o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ingliz va rus tillaridagi turizm terminologiyasining muhim tipologik, struktur-semantik xususiyatlari hamda uning shakllanish jarayonlari kompleks tarzda o'rganilgan.

Novikova I.N. ishida "dam olish" lingvokulturologik kontsepti qadriyat komponenti sifatida birinchi marta chog'ishtirma tilshunoslikda ingliz, nemis va rus tillaridagi reklamalar shiorlarida universal qadriyat sifatida qo'llanishi, verballashishi hali lug'atlarda qayd etilmagan paremlar asosida semantik jihatdan o'rganilgan, tasniflangan, o'xshash va farqli jihatlari aniqlangan[Novikova E.Y.,2022].

Moshnyaga Y.V. tadqiqoti[Moshnyaga E.V.,2011] xalqaro turizm tizimidagi madaniyatlararo kommunikatsiya konsept sohasi, ijtimoiy-madaniy negizlari, uning paradigmali xususiyatlariga bag'ishlangan.

Goncharova L.M. turistik diskursni tahlil qilgan holda, "tushuncha" va "kontsept"ning farqli jihatlari ajratib ko'rsatadi hamda "sayohat"ni konsept sifatida "turizm"ni esa ma'lum bir inson faoliyati sohasiga tegishli tushuncha sifatida ko'rib chiqishni taklif qiladi[Goncharova L.M.,2012].

M.A.Kuzina tadqiqoti nemis tilidagi turizm bo'yicha matnlarda qo'llangan inglizcha so'zlarning nemis tilidagi leksik-semantik assimilyatsiyasiga bag'ishlangan bo'lib, ingliz va nemis tillarining asosiy xususiyatlari hisobga olingan holda ikki til xususiyatlari o'zaro taqqoslanib o'rganilgan[Kuzina M.A.,2006].

Plyushkina M. Y. dissertatsiyasi Rossiya va Britaniya matbuot reklamasidagi turizm xizmatlari uchun mo'ljallangan pretsedent fenomenlarni taqqoslab o'rganishga bag'ishlangan[Plyushkina M.Y.,2008].

Umuman olganda, kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, turizmga oid lingvistik tadqiqotlar, asosan, turistik matnlarni tarjima qilish masalalari, ularni reklama qilish yoki diskursiv xususiyatlarini yoritish doirasida hamda sohaga doir leksik birliklarning leksikografik tadqiqi asosida olib borilgan. Biroq ushbu sohaga oid ko'plab ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, bugungi kunda mavjud ishlar turizmga oid matnlarning o'ziga xos xususiyatlari korpus tahlili asosida atroflicha qamrab olinmaganligini va bu muayyan tilda mavjud bo'lgan matnlarning milliy-madaniy xususiyatlari hamda sayohat doirasida qo'llanuvchi milliy-madaniy koloritni ifodalovchi leksik birliklar tahlili hamda korpus uchun matnlar to'plamini yaratishga ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Bu esa yangi tadqiqot uchun asos bo'lib xizmat qiladi.



RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR VA
SUN'YI INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 – 2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2980-son Farmoni\2017-yil, 19-may.
2. Беспалова С. В., Кузнецова Л. Н. Особенности жанра и композиции текстов немецкоязычных онлайн-путеводителей. Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2023. Том 16. Выпуск 5.
3. Дулов А.Н., К.А.Дюхова, Д.В.Юрчак. Монография: История путешествий
4. и туризма-2011. 138 стр.
5. Дзюба Дарья Николаевна. Виртуальный музей в контексте цифровой культуры. Автореф. дисс. канд. культурологических наук – Саранск, 2019.
6. Elena Manca, Francesca Bianchi. Tourism and tourist promotion around the world: a linguistic and socio-cultural perspective. Salento-2013.
7. Филатова Наталья Вячеславовна. Дискурс сферы туризма в прагматическом и лингвистическом аспектах. Автореф. дисс. канд. филол. наук. - Москва, 2014.
8. Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. –М.: Наука, 1981. 138 с
9. Goncharova Л.М. Концепт «путешествие» и его межкультурная представ ленность в рекламной коммуникации сферы туризма. НИР. Современная коммуникативистика (№ 1, 2012). Москва.
10. Груздев Дмитрий Юрьевич. Электронный корпус текстов как эффективный инструмент переводчика. Автореф. дисс. канд. филол. наук - Москва-2013.
11. Istamovna, Adizova Nilufar. "Leksik birliklarning milliy o'zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida)." Buxoro: Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari (xalqaro konf.). Conferences. 2021.
12. Istamovna, A. N. (2024). Sayohat turizmiga oid matnlarda milliy-madaniy birliklarning leksik-pragmatik xususiyatlari. «contemporary technologies of computational linguistics», 2(22.04), 479-484.
13. Istamovna, A. N. (2023). Methodological possibility of intertextuality in artistic text. Innovation in the modern education system, 3(31), 182-191.
14. Istamovna, Adizova Nilufar. "Intermatnlar badiiy asar ta'sirchanligini oshiruvchi muhim vosita." journal of innovations in scientific and educational research 7.11 (2024): 209-217.
15. Колчевская Валерия Алексеевна. Средства выражения категории персуазивности в гипержанре «сайт» туристического интернет-дискурса. Автореф. дисс. канд. филол. наук - Краснодар – 2020
16. Кузина Марина Анатольевна. Особенности лексико-семантической ассимиляции английских заимствований в современном немецком языке (на материале текстов по туризму). Автореф. дисс. канд. фил. наук - Москва-2006.
17. Липириди София Христофоровна. Семантико-аксиологические и когнитивно прагматические особенности сетевых английских неологизмов туристического дискурса. Автореф. дисс. канд. филол. наук - Краснодар – 2021
18. Мошняга Елена Викторовна. Концептное пространство межкультурной коммуникации в системе международного туризма. Автореф. дисс. доктора. философских наук – Москва, 2011.
19. Nuria Edo Marzá. A Practical Corpus-based Approach to Teaching English for Tourism. International Journal of Applied Linguistics & English Literature. Vol. 3 No. 1; January-2014.
20. Новикова Э. Ю. Жанровые, ценностные и транслатологические характеристики международного туристического дискурса в немецкой и русской лингвокультурах. Автореф. дисс. канд. филол. наука. Уфа – 2019.С.13

